

GLOBALIZATSIYA JARAYONIDA O‘ZBEK TILIGA KIRIB KELGAN SO‘ZLARNING O‘RNI

Samarqand davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Bobokulova Ruxshona Giyos qizi

Ilmiy rahbar: O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası assistenti Yusupov Sardor Shodi o‘g‘li

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz chetdan kirib kelgan so‘zlarning o‘zbek tili leksikasidagi o‘rni, sabablari va ularning ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qilamiz. Ma’lumki, dunyo hamjamiyati hozirgi paytda globallashuv va integratsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Texnologiyalarning rivojlanishi orqali har bir tilning leksikasida o‘zgarishlar kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Shu jumladan, o‘zbek tilida ham bunday so‘zlarning kirib kelishi kuzatilmoqda. Maqolada bunday jihatlar misollar asosida ko‘rsatib o‘tildi.

Kalit so‘zlar. Chetdan kirib kelgan so‘zlar, kompyuter, arab, rus, turkiy tillar, salbiy va ijobiy ta’sir.

Bugungi kunda jahon xalqlari orasidagi aloqa, texnologiyalar va madaniyatlar almashinuvi tobora kuchayib bormoqda. Bu jarayon globalizatsiya deb ataladi. Globalizatsiyaning ta’sirida har bir xalq yangi so‘zlar bilan boyimoqda. O‘zbek tili ham bundan mustasno emas. So‘nggi yillarda ingliz, rus, arab, turk va boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlar tilimizda ommalashmoqda. Tilga yangi so‘zlarning kirib kelishiga bir necha omillar sabab bo‘ladi. Texnologik rivojlanish “kompyuter”, “smartfon”, “internet” kabi so‘zlar orqali kirib kelgan. B.Abdugodirovning fikricha, “Iqtisodiy munosabatlarning globallashuvi natijasida marketing, menejment, investitsiya, tender kabi so‘zlar o‘zbek tili leksikadan mustahkam o‘rin egalladi. Endilikda bu so‘zlar begona emas, balki o‘zlashgan qatlamga mansubdir”. Endigi kunda bu mavzular doirasida qo‘llaniladigan so‘zlar biz uchun yangilik emas. Tilshunoslikda bu bo‘yicha quyidagicha fikrlar keltirilgan:

“Iqtisodiy munosabatlarning globallashuvi natijasida marketing, menejment, investitsiya, tender kabi so‘zlar o‘zbek tili leksikadan mustahkam o‘rin egallaydi. Endilikda bu so‘zlar begona emas, balki o‘zlashgan qatlamga mansubdir” [3:45-52].

“So‘zlarning ko‘pchiligi rus tili vositachilgisiz to‘g‘ridan to‘g‘ri ingliz tilidan o‘tayotganini ta’kidlaydi” [4:66-73].

“Globalizatsiya sharoitida o‘zbek tili lug‘at boyligining ortib borishi ijobiy hodisa, bu jarayon davlat tili me’yorlari imlo qoidalari bilan tartibga solishishi shart. Yangi lug‘at birliklari milliy mentalitetga zid kelmasligi lozim” [5:89-95].

Madaniy ta'sir "film", "serial", "brend", "fashion", "reklama" kabi so'zlar rus va ingliz tili orqali o'zbek tiliga kirib kelmoqda. Iqtisodiy va siyosiy aloqalar- xalqaro savdo ta'lim va siyosat sohalarida xorijiy atamalardan foydalanish zaruriyati mavjud. Masalan: "menejer", "marketing", "import", "eksport". Shu bilan bir qatorda, o'zlashma so'zlarning ham tilimizda o'z o'rnini bor. Erkinov bu so'zlarning ko'pchiligi rus tili vositachiligidir, to'g'ridan-to'g'ri ingliz tiliga o'tayotganini ta'kidlaydi. Chetdan kirib kelgan so'zlar o'zbek tilini boyituvchi yangi tushunchalarni tushunishga yordam beradi. Masalan, ilgari dinimizda mavjud bo'lmagan "kompyuter dasturchi", "onlayn ta'lim", "start up" kabi atamalar bugungi kunda bizga ancha yaqin va tushunarli hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda yangi kirib kelgan so'zlardan o'z holicha foydalanmasdan balki shu yangi so'zlar o'rniga muqobil variantlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, "meting" so'zi o'rniga "uchrashuv", "like" so'zi o'rniga "yoqtirish" so'zlarini ishlatishimiz mumkin.

O'zbek tili rivojlanishi uchun yangi so'zlarni qabul qilish tabiiy hol. Ammo ularni milliy talaffuzga moslashtirishimiz lozim.

Bu jarayon tilni sozlash emas, balki uni moslashtirish va uyg'unlashtirish demakdir. Tilimizga kirib kelayotgan yangi so'zlarning biz uchun ijobiy va salbiy oqibatlari mavjud. Bularni ko'rib chiqadigan bo'lsak.

Tilimizda yangi terminlar paydo bo'ladi, bu esa terminalogik bo'shliqlarni to'ldirishga yordam beradi. Yangi axborot texnologiyalari, iqtisodda va texnologik sohalarida yangi tushunchalar paydo bo'ladi. Masalan platform, startup, marketing. Bundan tashqari ilmiy terminlar tilimizga kirib kelsa, bu terminlar barcha xalqlarda bir xil ishlatilganligi sababli ularni tushinish osonlashadi, ya'ni tarjima qilishga o'rin qolmaydi. Bu esa ilm fan va texnologiyalarni tezlashishiga ham ancha turtki bo'ladi.

Ana endi salbiy ta'sirini ko'rib chiqadigan bo'lsak, birinchi navbatda, o'zbekcha muqobillar siqilib chiqariladi ya'ni o'zbekcha muqobili bo'la turib hozirgi kunda chet so'zlar ko'p ishlatiladi. Masalan, "uchrashuv" so'zi o'rniga "meeting" so'zi qo'llanishini uchratishimiz mumkin. Buning natijasida milliy leksikamiz ancha pasayadi. Bundan tashqari til madaniyatning pasayishiga olib keladi. Bundan tashqari agar o'zbekcha muqobildan foydalanmasak avlodlararo tushunmovchilik paydo bo'ladi ya'ni keksalarimiz bu so'zlarni tushinishmaydi. Masalan, target, stream, content. Yana imlo va talaffuzda ham g'alizlik paydo bo'ladi, ya'ni bir so'zning turlicha talaffuz qilinishi va yozilishida. Masalan online- onlayn, content-kantent bu esa, til me'yoring buzilishiga sabab bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Sh.Zaripov ta'kidlaganidek, "Globalizatsiya sharoitida o'zbek tili lug'at boyligining ortishi ijobiy hodisa, bu jarayon davlat tili me'yorlari imlo qoidalari bilan tartibga solishi shart. Yangi lug'at birliklari milliy mentalitetga zid kelmasligi lozim". Globalizatsiya sharoitida har bir xalq boshqa tillar bilan doimi aloqa holatida bo'ladi. Chet tillardan kirib kelgan so'z boyligini asrab o'zligimizni

yo‘qotmaslik muhimdir. Ya’ni har bir yangi so‘zning muqobilini topishga harakat qilishimiz kerak. Lekin yangi so‘zlarni cheklamasdan me‘yorlashtirishimiz zarur. Ta’lim tizimida so‘z tanlash madaniyati yo‘lga qo‘yilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Til millatning ruhi, uni zamonga mos ravishda boyitish bilan birga asl qiyofasini saqlash bizning burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatullayev Sh. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, Toshkent, “Universitet”, 2006. 476 b.
2. Jamolxonov H. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, Toshkent, “Talqin”, 2005. 260 b.
3. Abduqodirov B. “O‘zbek tilining rivojlanish jarayonidagi xorijiy so‘zlarning roli”. Tilshunoslik jurnali, 2010. 3(12), 45-52.
4. Erkinov M. “Globalizatsiya va til: O‘zbek tilidagi yangi so‘zlar”. O‘zbek tili va adabiyoti, 2015. 2(8), 66-73.
5. Zaripov Sh. “Globalizatsiya davrida til o‘zgarishlari va yangi lug‘at birliklarining paydo bo‘lishi”. Lingvistika jurnali, 2019. 4(10), 89-95.